

UO'K(UDC, УДК): 81-26

BADIIY OLAM MANZARASIDA INDIVIDUAL O'XSHATISHLAR TARJIMASINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI¹⁶

Sabirov Mahtumquli Ataboyevich

mustaqil izlanuvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: maxtunkuli@mail.ru

Orcid ID 0009-0008-5036-7093

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada badiiy olam tasvirida qo'llaniladigan individual o'xshatishlarning mazmun-mohiyati, ularni badiiy matnda qo'llashning asosiy omillari hamda individual o'xshatishlar tarjimasining lingvokulturologik xususiyatlari borasida so'z yuritiladi.

Individual o'xshatishda obyektiv voqelik va u haqidagi tushunchalar borasidagi ma'lum ma'lumotlar va g'oyalar yangi bilimlar bilan taqqoslash orqali to'ldiriladi. Obyektlarni bir-biri bilan qiyoslash hodisalarni tanib olish, yaxshiroq tushunish va aniqlashtirishga yordam beradi. Badiiy olam tasvirida qo'llangan individual o'xshatishlarni xorijiy tilga tarjima qilishda ularning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari, tarjimaning lingvokulturologik aspektlari, madaniyatni ifodalovchi til birliklarini tarjima matnida qayta ifodalash masalalariga jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Olamning badiiy tasvirida o'xshatish mavhumlikni aniqlik bilan ifodalash orqali olamni teranroq ifodalash maqsadida ham qo'llanadi. Bunda turli ruhiy kechinmalar aniq obyekt yoki hodisalarga o'xshatiladi.

O'zbek tili badiiy olam tasvirida individual o'xshatishlar asar qahramonlarining o'y-fikrlarini, emotsional holatlarini, kayfiyatini, ruhiy holatini, tashqi qiyofasini ifodalashda keng qo'llanadi. Individual o'xshatishlar badiiy asarda qahramonning ham salbiy, ham ijobiy xislatlari, xarakterini yorqinroq ifodalashga xizmat qiladi. Ingliz badiiy olam tasvrida ham individual o'xshatishlar insonning xarakteri, tashqi ko'rinishi, undagi emotsional holatlarni yorqin va tasirli qilib ifodalashga xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR

Badiiy matn, o'xshatish, individual o'xshatish, milliy-madaniy xususiyat, asliyat matni, tarjima matni.

Received: March 18, 2025

Accepted: April 7, 2025

Available online: May 2, 2025

¹⁶ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Sabirov M. Badiiy olam manzarasida individual o'xshatishlar tarjimasining lingvomadaniy xususiyatlari.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 224-237.

LINGUOCULTURAL FEATURES OF TRANSLATION OF INDIVIDUAL SIMILARITIES IN THE LANGUAGE OF THE LITERARY WORLD

Sabirov Mahtumquli Ataboyevich

Independent Researcher

Uzbek State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: maxtunkuli@mail.ru

Orcid ID 0009-0008-5036-7093

ABSTRACT

This article discusses the essence of individual similes used in the representation of the artistic world, the main factors influencing their application in artistic texts, and the linguistic and cultural aspects of the translation of individual similes. In individual similes, information and ideas about objective reality and its concepts are enhanced by comparing them with new knowledge. The comparison of objects helps to recognize, better understand and clarify phenomena. When translating individual similes used in the artistic depiction of the world into a foreign language, special attention must be paid to their unique national and cultural characteristics, the linguistic and cultural aspects of translation and the re-expression of cultural elements in the target text.

In the artistic representation of the world, similes are used to convey abstract ideas with precision, thereby providing a deeper expression of reality. In this process, different emotional states are similar to certain objects or events.

In the Uzbek language, individual similes are widely used in artistic texts to reflect the thoughts, emotional states, moods and psychological conditions of characters, as well as their external appearance. Individual similes serve to highlight both the positive and negative characteristics of a character and to make their personality more vivid. Similarly, individual similes play an important role in the vivid and effective expression of a person's character, appearance and emotional state in English artistic representations.

KEY WORDS

Artistic text, simile, individual simile, national and cultural characteristics, source text, target text.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ИНДИВИДУАЛЬНЫХ СРАВНЕНИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ КАРТИНЕ МИРА

Сабиров Махтумкули Атабаевич

Независимый исследователь

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: maxtumkuli@mail.ru

Orcid ID 0009-0008-5036-7093

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются сущность индивидуальных сравнений, используемых для создания художественной картины мира, основные факторы, влияющие на их применение в художественных текстах, а также лингвокультурологический аспект их перевода. В индивидуальных сравнениях знания и представления об объективной реальности и её понятиях обогащаются путём сопоставления их с новыми данными. Сравнение объектов друг с другом помогает узнавать, лучше понимать и описывать явления. При переводе индивидуальных сравнений, используемых для создания художественного образа мира, на иностранный язык необходимо уделять серьёзное внимание их уникальным национально-культурным особенностям, лингвокультурологическому аспекту перевода, а также передаче культурных элементов значения в переводном тексте.

В художественном изображении мира сравнения применяются для точного выражения абстрактных идей, что позволяет передать более глубокое понимание реальности. При этом различные эмоциональные состояния уподобляются конкретным объектам или событиям.

В узбекском языке индивидуальные сравнения широко используются в художественных текстах для передачи мыслей, эмоциональных состояний, настроения, психологического состояния персонажей, а также для создания их внешнего облика. Индивидуальные сравнения служат для яркого выражения как положительных, так и отрицательных черт характера героя. Аналогичным образом, в художественном мире, созданном при помощи средств английского языка, индивидуальные сравнения играют значительную роль в ярком и выразительном отображении характера человека, его внешности и эмоционального состояния.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Художественный текст, сравнение, индивидуальное сравнение, национально-культурные особенности, оригинальный текст, переводной текст.

KIRISH

O'xshatishlar eng muhim lingvo-falsafiy kategoriyalardan biridir. Individual o'xshatish dunyoni bilish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Individual o'xshatishda obyektiv voqelik va u haqidagi tushunchalar borasidagi ma'lum ma'lumotlar va g'oyalar yangi bilimlar bilan taqqoslash orqali to'ldiriladi. Obyektlarni bir-biri bilan qiyoslash hodisalarni tanib olish, yaxshiroq tushunish va aniqlashtirishga yordam beradi. A.A.Potebnya o'xshatishni dunyoni tushunish usullaridan biri deya e'tirof etgan.

Individual o'xshatishlarni tarjima qilishning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil qilish uchun ularning o'ziga xos xususiyatlari, muallifning individual o'xshatishni badiiy matnda qo'llashdan asosiy maqsadi, badiiy olam tasvirida o'xshatishlar ifodalanishining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

V.Psyanchinning fikricha, individual o'xshatishlarining turg'un o'xshatishlardan farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: "individual o'xshatish ijodiy harakat natijasi hisoblanib, ular kontekst bilan uzviy aloqadorlik kasb etadi"(Псянчин В.И., 2003, 28). Demak, individual o'xshatish avval ijodkor tomonidan individual tarzda yaratiladi va badiiy matnda qo'llanadi.

M.Mukarramov individual o'xshatishlarga quyidagicha ta'rif beradi: "individual o'xshatishlar "yozuvchining xalq tilidan mohirona foydalanishi orqali qo'llagan o'xshatishi bo'lib, ularda emotsionallik-ekspressivlik, obrazlilik yaqqol gavdalanib turadi". (Мукаррамов М., 1976, 28). M.Yo'ldoshev o'xshatish borasida M.Mukarramovga yaqinroq ta'rifni bayon etadi: "individual o'xshatishlari yozuvchining o'z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o'xshatishlaridir. Bunday o'xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi" (Йўлдошев М., 2006, 46). Ushbu ikki bir-biriga yaqin xulosalarga ko'ra, individual o'xshatish har bir shaxs tomonidan olamni idrok etishni yorqinroq ifodalash va tasvirlash uchun yaratiladi va ularda obrazlilik, ifodaviylik va originallik yaqqol namoyon bo'ladi. Turg'un o'xshatishlar esa xalq tilida avloddan-

avlodga o'tib kelgan, turg'un birikma shakliga kirgan, bir necha tillarda aniq muqobili mavjud bo'ladi.

Sh.Usmonovanning individual o'xshatish borasida ta'rifi ushbu turdagi o'xshatishni qisqacha yorqin bayonini ifodalay oladi: "muallifning o'ziga xos original o'xshatishi bo'lib, u yozuvchining mahoratini belgilaydi" (Usmonova Sh., 2015, 101) Demak, individual o'xshatishlar bir obyektga yozuvchi yoki individning yoshi, jinsi, mavqei, dunyoqarashi kabi xususiyatlariga ko'ra turlicha subyekt tanlanishi mumkin. Kutilmagan malomat yoki shikoyat natijasida o'z harakatini to'xtatib qo'ygan insonga nisbatan chaqmoq urgan daraxtday, jazirama issiqda yaproqlari harakatsiz qolgan daraxtday kabi individual o'xshatishli birikmalar qo'llanishi mumkin. Bu bevosita olamning anglash va uni o'z tasavvurida qayta ifodalash natijasida turli insonlarda turlicha ifodalanishi mumkin.

Sh.Usmonova xulosasiga ko'ra, "o'xshatishlar har bir xalqning lingvoma'daniy boyligi bo'lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslashdir" (Usmonova SH., 2019, 102) Har bir xalq individual o'xshatishlarni o'zi yashab turgan olamdagi mavjud obyektlar, predmetlar va voqeliklarga ko'ra yaratadi. Agar arab xalqlarida chiroyli ko'zlarni bo'ta ko'zdek chiroyli deb tuyaning ko'ziga ishlatilsa, Markaziy Osiyo xalqlarida bu holatda oxuning ko'ziga o'xshatiladi. Chunki arab xalqlarida ko'plab ijobiy xususiyat va xarakterlar, asosan, tuyaning xususiyatlariga qiyos qilinadi.

Demak, badiiy olam tasvirida qo'llangan individual o'xshatishlarni xorijiy tilga tarjima qilishda ularning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari, tarjimaning lingvokulturologik aspektlari, madaniyatni ifodalovchi til birliklarini tarjima matnida qayta ifodalash masalalariga jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi.

Ingliz tilidagi quyidagi matnni tarjimasi tahliliga e'tibor qaratsak: *After the funeral, my life changed. I felt as if time were suddenly precious, water going down an open drain, and I could not move quickly enough. (Mitch Albom, 1997, 6)*

Mazkur matnda individual o'xshatish "I felt as if time were suddenly precious, water going down an open drain, and I could not move quickly enough" murakkab

qo'shma gapida ifodalangan. Yozuvchi vaqtni qadrini suvning bebaholigiga o'xshatmoqda. Asar qahramonining yaqin insonining olamdan o'tishi unga bu umrning qisqaligi, uni qadriga yetishi, besamar o'tkazmasligi, suv kabi bebaho ne'mat sifatida qadrlashi lozimligi kabi o'y-xayollar o'tganligi ifodalanmoqda. Bu yozuvchining vaqtni, umrni qadri baland ekanligini vaqtga qiyoslashi individual yondashuv natijasida yuzaga kelmoqda. Tarjimon mazkur matnni ingliz tilidan quyidagicha tarjima qilgan: *Dafn marosimidan so'ng hayotim butunlay o'zgardi. Birdaniga vaqt jo'mrakdan oqib tushayotgan suv kabi bebaho ne'matga aylangan, men esa uni isrof qilmaslikka jon-jahdim bilan harakat qilishim kerakligini anglab yetgandim* (Morrining seshanba darslari, 2020, 9)

Tarjimon o'xshatishli birikmani so'zma-so'z tarjima strategiyasidan foydalanib, asliyatdagi o'xshatishli ma'noni tarjima matniga ham olib o'tgan. Biroq, matnda o'xshatishli birikmadan keyingi kelgan *"I could not move quickly enough"* (Mitch Albom, 1997, 6) jumlasini *"men esa uni isrof qilmaslikka jon-jahdim bilan harakat qilishim kerakligini anglab yetgandim"* (Morrining seshanba darslari, 2020, 9) tarzida o'zbek tilida ifodalagan. Bu esa matndagi vaqtning qiymatini, qadrini yuqoriligini yana ham ochib beruvchi ma'no yetarli darajada ifodalanmasligiga olib kelgan. Chunki matn yakunida dafn marosimidan keyin asar qahramonining vaqt borasidagi xulosasi aks etgan. Shuning uchun mazkur matnni o'xshatishni so'zma-so'z tarjima qilish strategiyasi va semantik tarjima metodidan foydalangan holda quyidagicha tarjima qilsak, asliyatdagi badiiy tasviriylilik tarjima matniga ham olib o'tilgan bo'ladi: *Dafn marosimidan so'ng hayotim o'zgardi. Vaqt jo'mrakdan oqayotgan suv kabi bebaho ne'matga aylangani, men esa o'zimni ko'p narsalarga ulgurmay qolayotgandek his qilardim.* (Morrining seshanba darslari, 2020, 9)

O'zbek tili badiiy olam tasvirida individual o'xshatishlar asar qahramonlarining o'y-fikrlarini, emotsional holatlarini, kayfiyatini, ruhiy holatini, tashqi qiyofasini ifodalashda keng qo'llanadi. Individual o'xshatishlar badiiy asarda qahramonning ham salbiy, ham ijobiy xislatlari, xarakterini yorqinroq ifodalashga xizmat qiladi.

Bular qiyqiriq solishib, tobiga kelgan choydoshdek sharaqlashib... kampir bilan o'ynasharkan, u charchab entikkanidan zo'rg'a-zo'rg'a nafas olib:

–Bas, qizi qurg'urlar... bas, deyman, bo'ldi endi... Yo'lingdan qolasan!.. — deya so'zlanardi. (Cho'lpon., 2000, 20)

Mazkur matnda “choy idishdek charaqlashib” birikmasida individual o'xshatish qo'llangan. Ushbu o'xshatishli birikmani qo'llash orqali yozuvchi qizlarning sho'x-shodon kulgilari, bir-biriga qilayotgan hazillari natijasida yuzaga kelayotgan holatni choydoshning sharaqlashiga o'xshatmoqda. Bu muallifning individual yondashuvi bo'lib, unda ijodkor olamni yanada yorqinroq ifodalash maqsadida qizlarning sho'x-shodon hayqiriqlarini ifodalash uchun har bir inson hayoti davomida ko'p bora duch keladigan vaziyatni, ya'ni maromiga yetib qaynayotgan choy idishdan chiqayotgan ovozga o'xshatmoqda. Mazkur matn ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilingan:

They screamed with the force of a whistling tea kettle. They so played with the old woman that she gasped for air from exhaustion and could barely breathe.

“Enough, you damn girls. Enough, I said, enough. You will be late!” she said. (Mitch Albom., 1997, 9)

Asliyat matnidagi “Bular qiyqiriq solishib, tobiga kelgan choy idishdek charaqlashib” individual o'xshatishli birikmasi ingliz tiliga “They screamed with the force of a whistling tea kettle” tarzida tarjima qilgan. Ingliz tilidagi ushbu ifodani o'zbek tilidagi ifodasi “Ular choy idish tovushi kuchi bilan baqirishdi”ga to'g'ri keladi. Bu yerda tarjimonning strategiya tanlash yondashuvini noto'g'ri deb baholay olmaymiz. Chunki o'xshatishning tarjima qilishning oltinchi strategiyasi o'xshatishni tushirib qoldirish, ya'ni tarjimada o'xshatishli ma'no ifodalanmagan matn yaratish strategiyasi ham mavjud. Biroq, bu yerda tarjima matnidagi holat qizlar choy idishdan chiqayotgan tovushdan foydalanib baqirish ma'nosini ifodalab kelmoqda. Ushbu mazmun go'yoki qizlar shunday tovush chiqargan yoki qaynab turgan choy idishdan tovush chiqarib baqirish ma'nosini anglatib qolmoqda. Real voqelikda esa buning iloji mavjud emas. Shuning uchun ushbu matnning o'xshatishli birikmani so'zma-so'z tarjima qilish strategiyasidan foydalangan holda quyidagicha

tarjima qilish maqsadga muvofiq: They played with old woman screaming as the voice of whistling kettle and she could barely breathe. “Enough, you damn girls. Enough, I said, enough. You will be late!” she said. Mazkur tarjima varianti asliyatga yaqinroq hisoblanib, ushbu yondashuv asliyat matnidagi olamni badiiy tasvirini aks ettirgan o‘xshatishli ifodani tarjima matniga ham olib o‘tishga yordam beradi.

Ingliz badiiy olam tasvirida ham individual o‘xshatishlar insonning xarakteri, tashqi ko‘rinishi, undagi emotsional holatlarni yorqin va ta’sirli qilib ifodalashga xizmat qiladi.

“I watched him now, his hands working gingerly, as if he was learning to use them for the first time.” (Mitch Albom. 1997, 11)

Mazkur matnda “as if he was learning to use them for the very first time (birinchi marta ulardan foydalanishni o‘rganayotgandek)” ifodasi individual o‘xshatishli birikma yordamida yaratilgan. Bunda asar qahramonining o‘ta ehtiyotkor xatti-harakatini ifodalash uchun biror narsani birinchi marta foydalanayotgan inson holatiga o‘xshatilmoqda. Mazkur matn o‘zbek tilida quyidagicha ifodalangan: *Men unga qaradim. Uning qo‘llari ulardan birinchi marta foydalanishni o‘rganayotgandek ehtiyotkorlik bilan harakatlanar edi.* Bir qarashda ifoda uchun foydalanilgan bu holat umumiylik kasb etadi. Chunki inson hayoti davomida ko‘p narsalarni birinchi marotaba foydalanadi. Unda ehtiyotkorlik talab qilinishi yoki qilinmasligi ham mumkin. Shuning uchun ushbu ifodani yanada yorqinroq ifoda etish uchun maxsus ifoda tanlash maqsadga muvofiq. Buning semantik tarjima uslubidan foydalangan holda mazkur vaziyatni to‘liqroq namoyon etadigan tasviriy ifodaga almashtirish talab etiladi. Semantik tarjima uslubida tarjima matnida xuddi shunday ma’no kasb etadigan yangi ifoda yaratish talab etiladi. Demak, mazkur matnni yuqorida e’tirof etilgan tarjima uslubidan foydalangan holda ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilish maqsadga muvofiq: *Men unga tikilib turardim. Uning qo‘llari xuddi derazaga oyna o‘rnatayotgan odamdek juda ehtiyotkorlik bilan harakatlar edi.* Mazkur tarjima variantiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u asliyatga ma’no jihatidan yaqinroq hisoblanadi. Bunda asliyat tilidagi

o'xshatishni tarjima tilidagi turli o'xshatishlar bilan almashtirish strategiyasi samarali hisoblanadi.

Olamning badiiy tasvirida o'xshatish mavhumlikni aniqlik bilan ifodalash orqali olamni teranroq ifodalash maqsadida ham qo'llanadi. Bunda turli ruhiy kechinmalar aniq obyekt yoki hodisalarga o'xshatiladi. Bu holatni quyidagi matnda ham ko'rish mumkin: *Kamsitishlar o'sha onning o'zidayoq unutilgan, o'tgan yilgi qordek erib yo'q bo'lgan, bahordagi yomg'ir kabi asari ham qolmagan...* (Cho'lpon., 2000, 60-61). Mazkur matnda insonning salbiy xarakterini ifodalaydigan emotsional xatti-harakatlarning barham topishi tabiat hodisalarining o'tib ketishiga o'xshatilmoqda. Qorning erib bitishi, bahorgi yomg'irning tez yog'ib o'tishi tez unutilgan kamsitishlarni yorqinroq tasvirlashga xizmat qilmoqda. Mazkur matn ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilinmoqda: *He had forgotten the insults the moment they had been pronounced. They were gone forever like last year's snow; like after a spring rain there was no sign of them.* (Cho'lpon. 2019,) Asliyat matnidagi "o'tkan yilgi qordek" o'xshatishli birikmasi "like last year's snow" ko'rinishida, "bahordagi yomg'ir kabi" ifodasi esa, "like after a spring" tarzida tarjima matnida ifodalangan. Mazkur ifodani tarjimon o'xshatishni so'zma-so'z tarjima qilish strategiyasidan foydalangan holda ingliz tiliga tarjima qilgan. Bir ko'rishda asliyatdagi ma'no tarjima tilida ham to'liq namoyon bo'lgandek. Biroq, ingliz va o'zbek xalqining olamning lisoniy tasviridagi ayrim farqli jihatlar tarjimadagi bu yaqinlikka to'sqinlik qiladi. Asliyat matnidagi kamsitishlarni tez unutilishi tez erib ketgan qorga va bahorgi yomg'irga o'xshatilmoqda. Buyuk Britaniya iqlimiga e'tibor qaratsak, u yerda iqlim Markaziy Osiyoga nisbatan sovuqroq bo'lganligi uchun qor tez erib ketmaydi. Qish kunlarida Britaniya orolining ayrim hududlarida haftalab, hattoki, oylab tuman tushishi mumkin. Bu esa qorning erishini sekinlashtiradi. Shuningdek, u yerda bahorda yog'adigan yomg'ir ham Markaziy Osiyo mintaqasidan farq qiladi. Bu esa Markaziy Osiyo xalqlarining badiiy olamni tasvirlashda qo'llanadigan o'xshatish obyektlari ingliz o'quvchisi uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Shuning uchun yuqoridagi matnni ingliz tiliga o'xshatishni tarjima qilishning uchinchi va ikkinchi strategiyalarini uyg'unlashtirish

orqali quyidagicha tarjima qilish mumkin: *He had forgotten the humiliations when they have been expressed. They were gone forever like an instantly forgettable tune.* (Choʻlpon. 2019,) Bu yerda uchinchi strategiyani qoʻllashdan maqsad shuki, asliyatdagi “oʻtgan yilgi qordek erib yoʻq boʻlgan”, “bahordagi yomgʻir kabi” oʻxshatishli birikmalar maʼno jihatdan bir xil vazifani bajarganligi bois, ikkita oʻxshatishli birikmani bitta oʻxshatishli birikmaga aylantirilmoqda. Ana shu qisqartirilgan ifodani tarjima tilidagi mavjud oʻxshatishlardan foydalanish strategiyasidan foydalangan holda “like an instantly forgettable tune” ifodasi bilan almashtirilmoqda.

Ingliz tili badiiy olam tasvirida individual oʻxshatishli ifodalar insonlarning xatti-harakatlarini ham yorqinroq ifodalashga yordam beradi. Albatta, oʻxshatishli ifodalarning mazkur funksiyasi oʻzbek tilida ham mavjud. Quyidagi ingliz tilidagi badiiy matnda aynan mana shu holat ifodalangan:

In our hooded parkas, we roll like logs down the cold, wet snow, thinking the next thing to touch us will be the hard rubber of a car tire. We are yelling “AHHHHHH” and we are tingling with fear, turning over and over, the world upside down, right side up, upside down. (Mitch Albom., 1997, 29)

Mazkur matnda “roll like logs down (gʻoʻlalar kabi pastga dumalamoq)” jumlasini orqali oʻxshatishli ifoda yaratilgan. Bu yerda yozuvchining individual yondashuvi orqali qorda dumalab pastga tushayotgan bolalar dumalab ketayotgan gʻoʻlalarga oʻxshatilmoqda. Bunda jonli mavjudot jonsiz predmetlarga oʻxshatilmoqda. Ushbu matn ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilingan:

Kapyushonli kurtkamizga oʻralib, sovuq, nam qorda gʻoʻladek pastga dumalaymiz; xayolimizda esa mana-mana mashina gʻildiraklari ostida qoladigandek his qilamiz oʻzimizni. “AAAAAA” deb baqirib, qoʻrquvdan titragancha pastga dumalashda davom etamiz: dunyo chirpirak boʻlib aylanadi – tepaga, pastga, tepaga, pastga. (Choʻlpon., 2000, 60-57)

Asliyat matnidagi “roll like logs down” oʻxshatishli birikmasi oʻzbek tilida “gʻoʻladek pastga dumalaymiz” tarzida ifodalangan. Tarjimon bu yerda oʻxshatishli ifodani soʻzma-soʻz tarjima qilish strategiyasidan foydalanish orqali asliyatdagi

o'xshatishli ifodani tarjima tiliga olib o'tgan. Bu yerda bolalarning qor ustida dumalashi va uni g'o'laning dumalab pastga tushishi barcha xalqlarning olamning lisoniy tasvirida o'xshash bo'lganligi bois, so'zma-so'z tarjima strategiyasi samarali foydalanilgan. Bu yerda tarjimonning mahoratini ifodalaydigan yana bir jihat mavjudki, unda tarjimon asliyat matnida mavjud bo'lmagan o'xshatishli ifodani tarjima matnida hosil qilgan. Buni "mashina g'ildiraklari ostida qoladigandek his qilamiz" jumlasida ko'rishimiz mumkin.

O'zbek badiiy olam tasvirida individual o'xshatishli biriklamalar insonlarning tana a'zolari va ulardan hosil bo'ladigan tovushlarni yorqin ifoda etish maqsadida jonsiz predmetlarning bir-biriga yoki birini boshqasiga urishtirishi yoki tegishtirishi natijasida yuzaga kelgan tovushlarga o'xshatish ham keng tarqalgan.

Bir-ikki bayt o'tgandan keyin Zebining tiniq, g'uborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va o'tkir ovozi qo'shildi. (Cho'lpon., 2000, 36) Mazkur matnda "jonon piyoladek jaranglab chiqadigan" birikmasida individual o'xshatish qo'llangan bo'lib, matn parchasida Zebining tiniq, beg'ubor va jarangdor ovozi jonon piyoladan chiqadigan ovozga o'xshatilmoqda. Odatda jonon payola yuqori sifatli chinni payola hisoblanib, jonon "hurliqo", "sevimli" ma'nolarini anglatadi. Matnda Zebining chiroyli, jarangli ovozi jonon payola ovoziga o'xshatilmoqda. Ushbu matn ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilingan: *After a couple of lines Zebi's beautiful, powerful voice joined in, ringing out like tea striking an immaculately clean cup.* (Cho'lpon., 2019, 38) Mazkur tarjimada asliyat matnidagi o'xshatishli struktura saqlanib qolingan. Biroq o'xshatishli ma'no tarjima qiliga olib o'tilmagan. Tarjima matnidagi o'xshatishli birikmaning ma'nosi "choyni bo'sh piyolaga quyishdan chiqadigan tovushga o'xshamoq" ma'nosi anglashiladi. Real voqelikda esa insonning jarangli ovozi piyolaga quyolayotgan choydan chiqadigan ovozdan ancha yiroqdir. Shuning uchun mazkur matndagi o'xshatishli ifoda ma'nosini tarjimda ham aka ettirish uchun o'xshatishni tarjima qilishning beshinchi strategiyasi, ya'ni individual o'xshatishni turg'un o'xshatishga o'zgartirib tarjima qilish strategiyasidan foydalanishni tavsiya etgan holda quyidagicha tarjima variantini havola etmoqchimiz: *After having told a couple of line poems, they heard*

Zebi's beautiful and powerful voice which was as sweet as sugar. Bunda "jonon piyoladek" individual o'xshatishli ifoda "as sweet as sugar" turg'un o'xshatishli birikma bilan almashtirildi.

Ba'zida badiiy matnda individual o'xshatishlar insonning biror bir voqelikka bo'lgan munosabati, shu munosabat yuzasidan holati kabilarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Shu choqqacha "yor-yor"ga quloq berib, indamasdan, asta-asta otini qamchilab ketayotgan aravakash bu ovoz chiqishi bilan og'ir bir "uh" tortdi, qo'lidagi qamchisi daraxtdagi kuzgi yaproq singari zo'rg'a-zo'rg'a barmoqlariga osilib qoldi...

Mazkur matnda "daraxtdagi kuzgi yaproq singari" birikmasi o'xshatishli ifoda qo'llangan bo'lib, bunday ifodani qo'llashdan maqsad, uzoq yo'l yurib zerikkan, xorigan, xatto, qamchini qattiqroq ushlashga eringan bir aravakash tasvirini yorqin ifodalash uchun qo'llangan. Bu yerda aravakashni qamchini ushlab turishi kuzgi yaproqqa o'xshatilishidan asosiy maqsad, kuzgi yaproq daraxt novdasiga boshqa fasllarga nisbatan oson, yerga tushushga moyilroq holatda bo'ladi. Kuzgi yaproqqa biror obyektning sal tegishi uning yerga tushishiga olib keladi. Aravakashni qo'lida bazo'r turgan qamchi kuzgi daraxt yaprog'i bilan badiiy tasviriylik hosil qilmoqda. Ushbu matn ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilingan: *Having up to now listened to their song silently while urging the horse on, O'lmasjon, enamored with Zebi's voice, let out a sigh. He let the whip hang from his fingers like an autumn leaf from a tree branch.* (Cho'lpon., 2019, 33) Tarjima variantida asliyatdagi "kuzgi yaproq singari" individual o'xshatishli birikmasi "like an autumn leaf" ifodasi bilan berilgan. Tarjimon bu holatda o'xshatishni so'zma-so'z tarjima qilish strategiyasidan foydalangan. Mazkur matn ifoda tarjimasidan ushbu usuldan foydalanaganda ham asliyatdagi o'xshatishli ifoda tarjima matniga o'tgan. Chunki kuz faslidagi daraxt yaprog'i barcha mamlakat va xalqlarda bir xil ko'rinishga ega bo'ladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, individual o'xshatishlar badiiy matnda ifodalangan badiiy tasviriylilikni yorqin ifodalashda, badiiy voqelikdagi mavhumlikni aniqlik bilan tasvirlashda, asarda obyektlar, asar qahramonlarini tashqi qiyofasi va ruhiy-emotional holatini o'quvchi tasavvurida teranroq namoyon qilishda keng qo'llanadi.

Badiiy matnda qo'llangan individual o'xshatishlarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, agar o'xshatishlar o'ziga xos olamning lisoniy tasviriga, milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lsa, asliyat va tarjima tillari sohiblarining olamni anglashdagi faqrli jihatlariga e'tibor qaratish va tarjima tilidagi muqobil ifodani topa bilish lozim. Agar individual o'xshatishlar obyekti umuinsoniy tasavvurga ega bo'lsa, ularni tarjima qilishda o'xshatishni so'zma-so'z tarjima qilish strategiyasidan foydalansa ham asliyatdagi o'xshatishli ma'no tarjima matniga ham olib o'tiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Usmonova SH. Lingvokulturologiya: Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 102.
2. Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. –Toshkent, 2015. – B. 101.
3. Ёўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоетик таҳлили. –Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси: Фан, 2006. – Б. 46.
4. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 28.
5. Псянчин В.Ш. Художественные средства языка. Уфа: Китап, 2003.
6. Mitch Albom. Tuesdays with Morrie: an old man, a young man, and life's greatest lesson. – 1997.
7. Cho'lpon. Kecha va Kunduz.- Toshkent, 2000.- B. 60-61
8. Cho'lpon. Night and Day. – Boston, 2019.- p. 37
9. Elbom Mich. Morrining seshanba darslari. – Toshkent, 2020.- B. 24

REFERENCES

1. Usmonova, Sh. (2019). Linguoculturology: Textbook. Tashkent: Uzbekistan.
2. Usmonova, Sh. (2015). Linguocultural aspects of translation. Tashkent: Uzbekistan.
3. Yo‘ldoshev, M. (2006). Artistic text and its linguistic analysis. Uzbekistan Academy of Sciences: Fan.
4. Mukarramov, M. (1976). Similes in the Uzbek language. Tashkent: Fan.
5. Psyanchin, V. Sh. (2003). Artistic means of language. Ufa: Kitap.
6. Mitch Albom. (1997) Tuesdays with Morrie: an old man, a young man, and life’s greatest lesson
7. Cholpon. (2000). Night and Day. Tashkent.
8. Cholpon. (2019). Night and Day. Boston.
9. Mitch Albom. (2020) Tuesdays with Morrie: an old man, a young man, and life’s greatest lesson.